



“Tasdiqlayman”
“Shurtan GKM” MCHJ
Ekspert-texnik komissiyasi raisi
X. Toshboev
« 07 » 07 2022 y.



“Shurtan GKM” MCHJda

Integratsiyalashgan menejment tizimi (ISO 9001, ISO 14001, ISO 45001 va ISO 50001 asosida) bo'yicha ichki auditor o'quv kursini o'tkazishga

TEXNIK TOPSHIRIQ

1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

1.1. Nomi

Integratsiyalashgan menejment tizimi (ISO 9001, ISO 14001, ISO 45001 va ISO 50001 asosida) bo'yicha ichki auditor o'quv kursini o'tkazish.

1.2. Xizmatni sotib olishning asosi va maqsadi

Asos: ISO 9001, ISO 14001, ISO 45001 va ISO 50001 xalqaro standartlari talablarini bajarish.

Maqsad: ISO 9001, ISO 14001, ISO 45001 va ISO 50001 xalqaro standartlari talablarini chuqur o'zlashtirish, korxonada ichki audit o'tkazishda qatnashish uchun sertifikatga ega bo'lish.

2. XIZMAT KO'RSATISH JOYI

O'zbekiston Respublikasi, Qashqadaryo viloyati, G'uzor tumani, "Shurtan gaz kimyo majmuasi" MCHJ, 180300

3. XIZMAT KO'RSATISH MUDDATI

O'quv kursi 5 kun (30 akademik soat) ga mo'ljallangan. O'tkazish muddati - 2022 yilning uchinchi choragi. Aniq vaqti tomonlar kelishuvi orqali belgilanadi.

4. XIZMAT KO'RSATISHGA UMUMIY TALABLAR

O'quv kursida buyurtmachi tomonidan jami 12 nafar xodim qatnashadi.

O'quv kursi mobaynida o'rganiladigan ma'lumotlarning ko'pligi va ajratilgan vaqtning kamligini hisobga olgan holda, o'qitish sifatini oshirish maqsadida zamonaviy texnologiyalar, o'quv jihozlari, ko'rgazmali materiallar va boshqalardan foydalanish, har bir qatnashuvchi zarur o'quv materiallari bilan ta'minlanishi talab etiladi.

O'quv kursi yakunida qatnashchilardan imtihon olinadi. Imtihon natijalariga asosan xalqaro namunadagi sertifikat beriladi.

IJROCHI qatnashuvchilar davomati, faolligi, imtihon natijalari haqidagi ma'lumotni BUYURTMACHIGA taqdim etadi.

O'quv kursi davlat tilida olib borilishi kerak.

5. IJROCHI (NODAVLAT TA'LIM MUASSASASI) TOMONIDAN TAQDIM ETILADIGAN HUJJATLAR

- Nodavlat ta'lim xizmatlarini ko'rsatish faoliyatiga litsenziya. Litsenziyada ta'lim yo'nalishi ko'rsatilgan bo'lishi kerak;
- Yuridik shaxs (tadbirkorlik subyektini) davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida guvohnoma;

6. IJROCHI (O'QITUVCHI) MALAKASIGA TALABLAR

Ijrochi (o'qituvchi(lar)) quyidagilarni tasdiqlovchi tegishli hujjatlarni taqdim etish(lar)i kerak:

- Oliy ma'lumot;
- Integratsiyalashgan menejment tizimi (ISO 9001, ISO 14001, ISO 45001, ISO 50001) bo'yicha auditorlik sertifikat;
- Xalqaro sertifikatlash tashkiloti organida auditor sifatida kamida 3 (uch) yil ish tajribasi.


Ishlab chiqdi:

IB xizmati boshlig'i

Kelishildi:

Bosh energetik o'rinbosari

SX, SS, M va AMMB boshlig'i



A. Qurbanov

M. Gapparov

U. Xaydarov